



BOLALARGA NISBATAN TURLI ZO'RAVONLIK HOLATLARNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Xasanova Muxarramxon Nasrullo qizi

Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari agentligi

Namangan shahridagi Prezident maktabi psixolog

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bolaga zo'ravonlik, shafqatsizlik kabi jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, beparvolik, psixologik zo'ravonlik va insoniyatga to'g'ri kelmaydigan maqsadga erishishga qaratilgan boshqa xattiharakatlar, bolaga og'riq keltiruvchi, uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar etkazish - harakat haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zulm, zarar, exploitation, beparvolik, bevosita zulm, bilvosta zulm, jismoniy zuravonlik, jinsiy zuravonlik.

KIRISH

Bugungi kunda adabiyotlarda sinonimlar sifatida «zulm» va «nomunosib munosabat» so'zları ishlataladigan «bolalarga nisbatan zulm» tushunchasi (ingl. Child Abuse) Butunjahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999 yilda taklif etilgan quyidagi ta'rifga tayanadi: «Zulm» yoki «bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lish» «...bolaning sog'lig'iga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagि jismoniy yoki emotsiyal salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyoitsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya»ni anglatadi

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan «bolaga nisbatan zulm» atamasi o'zida «ehtiyoitsiz munosabat» hamda «tashlab qo'yilganlik» (ingl. Neglect) tushunchalarini ham o'zida mujassam etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekistonda «bolalarga nisbatan zulm va ehtiyoitsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. O'zR qonunchiligiga ko'ra, zulm deganda ehtiyoitsiz va loqayd munosabatda bo'lish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha ta'riflanadi: Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalaniб, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo'lish – ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog'gom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to'la ma'lumot olish va shu kabilarni ta'minlashga doir o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari.

Bolalarga nisbatan noloyiq munosabat turlari



Jismoniy zo‘ravonlik – shafqatsizlik va bolaga og‘riq keltiruvchi hamda uning sog‘lig‘i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo‘lмаган мақсадга yo‘naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

- ✓ bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki og‘riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo‘g‘ish yoki cho‘ktirish)
- ✓ bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik
- ✓ bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash
- ✓ bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash
- ✓ Jinsiy zo‘ravonlik – kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish.
- ✓ bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan)
- ✓ bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor
- ✓ seksual tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o‘yinlar, suhabatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilish
- ✓ seksual g‘arazgo‘ylik – bolani seksual maqsadda sotish, pornografik foto va videotasvirlardan foydalanish
- ✓ fohishabozlikka jalb qilish

Emotsional (ruhiy) zo‘ravonlik – bolaga lozim darajada e’tibor bermaslik, g‘amxo‘rlik qilmaslik, qo‘llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko‘rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e’tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo‘ladi va bu o‘z qadr-qimmatini bilmaslik va o‘ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi, bularga:

- ✓ yolg‘on, tahdid, qo‘rqtish, kamsitish, haqorat qilish, so‘kish;
- ✓ boladan voz kechish, izolyasiya
- ✓ noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash
- ✓ bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish □ bolaning me’yorida rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi ortiqcha homiylik □ kattalarning o‘z va’dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg‘usining buzilishi.

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo‘lмаган har qanday tan jarohati.

Bolalar ustidan jinsiy zo‘ravonlik – bola yoki o‘smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish.

Bola ehtiyojlariga e’tiborsizlik – ota-onada yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to‘lмаган bolaning asosiy ehtiyojlarini ta’minlashga surunkali noqodirligi.

Psixologik zo‘ravonlik, o‘z navbatida, ikki turda bo‘lishi ham mumkin:

- ✓ psixologik beparvolik – bu ota-onada yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko‘mak, e’tibor, psixologik himoyani ta’minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo‘qligi.



✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamshitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo'ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og'ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko'chirildi, bundan xatar omili ota-onaning bolaga zo'ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So'ng zo'ravonlikni ota-onsa va bola o'rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish zarurki, tadqiqotchilar xatar omillarini shaxs, oila va jamiyat darajasida aniqlaydilar va bir omil emas, balki ularning o'zaro ta'siri bolalar ustidan zo'ravonlik o'tkazishga olib kelishini isbotlaydilar. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo'ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo'lish ehtimoli yoki imkoniyati borligini ta'kidlaydilar. Bunda bir necha ijobjiy omillarning mavjudligi (ijtimoiy ko'nikmalar, "Men" ning ijobjiy identifikatsiyasi va h.k.) xatar omilining ta'sirini kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистонда болаларни нолойик муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
2. Шафқатсиз муносабат ва эҳтиётсиз муносабатга дучор бўлган болалар учун руҳий-тиббий-ижтимоий марказ “ОЗОН” (Россия) маълумотлари ҳамда “Ўзбекистонда болаларни нолойик муносабатдан муҳофаза қилиш тизими” тренинги материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Таржимон А.Юнусов).
3. Абдурахмонова, М. М. (2020). Ижтимоий иш касбий фаолиятининг мактабга йўналтирилган соҳасини ривожланишида жаҳон амалиёти тажрибалари. Журнал Социальных Исследований, 3(6)